



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



AMAL DUNQUL SHE'RIYATI POETIKASI

Ikrom Bultakov

O'qituvchi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: «yangi she'riyat», an'anaviy qasida, erkin she'r, shakl, mazmun, aruz, vazn, rukn, qofiya turlari, ritorik takror, tashbih, obraz, iqtibos.

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmida Misr she'riyatiga kirib kelgan Amal Dunqul hayotga bo'lgan munosabatini o'ziga xos badiiy she'riy shaklda ifodaladi. U "yangi she'riyat"ning boshqa vakillari singari aruzga murojaat qilib, uning ruknlaridan foydalandi va har bir she'rni aruzning biror bahri rukniga asoslangan holda yozdi. U arab she'riyatining ikki daryosini – asrlar davomida she'riyatning asosi bo'lib kelgan aruz vazni bilan yangi she'riy shaklni bir-biriga qo'shishga muvaffaq bo'ldi. Amal Dunqul o'z she'rlarida takror, tashbih, jonlantirish kabi san'atlarni qo'llashda ham arab she'riyatining benihoya boy tajribasidan foydalandi. Shu bilan birga ko'p hollarda mustaqil ish tutib, o'ziga xos badiiy uslub yaratdi. Bular o'z navbatida "yangi she'riyat"ning keyingi bosqichlardagi rivojida o'z hissasini qo'shdi.

THE POETICS OF AMAL DUNQUL'S POETRY

Ikrom Bultakov

Teacher, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "new poetry", traditional ode, free verse, form, content, aruz, weight, stanza, types of rhyme, rhetorical repetition, simile, image, quote

Abstract: Amal Dunqul, who entered Egyptian poetry in the second half of the 20th century, expressed her attitude to life in a unique artistic poetic form. He, like other representatives of the "new poetry", turned to Aruz and used its columns, and wrote each poem based on a column of Aruz. He managed to combine the two rivers of Arabic poetry - the weight of aruz, which has been the basis of poetry for centuries, and a new poetic form. Amal Dunqul used the rich experience of Arabic poetry in the use of repetition,

alliteration, and revitalization in her poems. At the same time, he often worked independently and created his own artistic style. These, in turn, contributed to the development of "new poetry" at the next stages.

ПОЭТИКА ПОЭЗИИ АМАЛА ДУНКУЛА

Икрома Бултакова

*Преподаватель, кандидат филологических наук, доцент
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые системный специальная терминологии, поле, правила.</p>	<p>слова: подход, система строительное организационные</p>	<p>Аннотация: Амаль Дункул, вошедшая в египетскую поэзию во второй половине XX века, выразила свое отношение к жизни в своеобразной художественно-поэтической форме. Он, как и другие представители «новой поэзии», обратился к Арузу и использовал его колонки, а каждое стихотворение писал на основе колонки Аруза. Ему удалось соединить две реки арабской поэзии — тяжесть аруза, который на протяжении веков был основой поэзии, и новую поэтическую форму. Амаль Дункул использовала богатый опыт арабской поэзии в использовании повторов, аллитераций и оживлений в своих стихах. При этом он часто работал самостоятельно и создавал свой собственный художественный стиль. Это, в свою очередь, способствовало развитию «новой поэзии» на последующих этапах.</p>
---	---	---

KIRISH

XX asr o'rtalarida Misr adabiyotida vujudga kelgan "yangi she'riyat" asrlar davomida yetakchi o'rinni egallab kelgan she'riyatga yangi ruh olib kirdi. Zamonaviy shoirlar o'z she'rlarida atrof olam, ijtimoiy-siyosiy hayot voqealari va adabiy jarayonlarni zamon ruhiga mos badiiy uslublarda ifoda etdilar. Taniqli shoir Kamol Nashaat o'z she'rlarining aksariyatida ramziy obrazlarga murojaat etsa, Saloh Abdussabbur sufiyona obrazlarni tanladi. Yana bir Misr shoiri Najib Surur esa xalq ijodiyotiga murojaat qilib, undagi boy ifoda usullari va obrazlaridan keng foydalandi. Zamonaviy Misr she'riyatining ikkinchi avlod vakili Amal Dunqul ham hayotga bo'lgan munosabatini o'ziga xos badiiy she'riy shaklda ifodaladi. Shoir she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, u hayot va uning ma'nosi, inson va uning burchi, yaxshilik va yovuzlik kurashi, adolatsizlik, nohaqlik va boshqalar haqidagi o'ylar bilan to'la hayotiy, axloqiy va falsafiy masalalarni qamrab olganligini guvohi bo'lamiz. Bu masalalar insoniyatni doimo tashvishga solib kelgan va hozirgi kunda ham to'liqlantirib turgan muammolardandir.

Amal Dunqul ijodiga taniqli Misr shoiri Ahmad Hijoziy she'riyatining ta'siri kuchli bo'lgan bo'lsada, u o'z uslubi va yo'nalishiga ega shoir edi. Amal Dunqul «'ash-shi'ru-l-hurr» ("erkin she'r") ning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan shunday asarlar yaratdiki, ular har bir kitobxonni o'z jozibasi bilan jalb etdi.

Shoirning barcha she'rlari o'quvchida jiddiy e'tiborni, chuqur mulohazani, ayni vaqtda "yangi she'riyat"ga xos bo'lgan xususiyatlarni, ramziy ma'nolarni tushunish uchun muayyan tayyorgarlikni talab etadi.

Avvalo, shoir o'zining barcha she'rlarini mazmunga mos ravishda nomlaydi. Yirik hajmdagi she'rlarini qismlarga ajratishda raqamlardan yoki alohida nomlardan foydalanadi. Masalan, "Janublikning so'nggi varag'i" she'rini صوت ("Ovoz") – وجه ("Yuz") – وجه ("Yuz") – وجه ("Yuz") – وجه ("Yuz") – مرآة ("Oyna") deb, "Yoz va qish kitobidan sahifalar" she'rini حمامة ("Kabutar") – ساق ("Sun'iy oyoq") – شتاء عاصف ("Bo'ronli qish") deb nomlaydi. Bunday qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik ba'zida yaqqol ko'zga tashlansa, ba'zi she'rlarida esa bu bog'liqlik yashirindir. Shu sababli ularning har biri o'quvchi ko'z o'ngida mustaqil she'r bo'lib gavdalanadi. Ammo she'r qismlarini e'tibor bilan o'qiganimizda ular o'rtasida ma'noviy bog'liqlikni ko'ramiz.

Shoir ko'p she'rlarida g'oya va o'z maqsadini ochib beradigan so'z yoki iboralarni alohida satrlarga o'zi xohlagan tartibda chiqaradi. Gohida ularni zinapoya tartibida teradi.

هل تريد قليلا من البحر؟
 أن الجنوبي لا يظمنن إلى إثنين يا سيدي:
 والمرأة الكائبة-البحر
 سوف آتيك بالرمل منه
 وتلا مشى به الظل شينا شينا،...
 فلم إستينه
 هل تريد قليلا من الخمر؟
 إن الجنوبي يا سيدي يتهيب شينين:

قنينة الخمر – والآلة الحاسبة [1:366-367].

- *Dengizda bo'lishni istaysanmi?*
- *Janob, janublik bezordir ikki narsadan:
Dengiz hamda qallob ayoldan.*
- *Unday bo'lsa senga undan qum keltiray.*
- *...Asta-sekin soya yo'qola bordi,
Men uni ko'rmayin qoldim.*
- *Qittak sharob keltiraymi?*
- *Janob, janublik qo'rqadi ikki narsadan:
Sharob shishasi va hisoblagich jihozdan.*

A. Dunqul "yangi she'riyat"ning boshqa vakillari singari aruzga murojaat qilib, uning ruknlaridan foydalandi va har bir she'rni aruzning biror bahri rukniga asoslangan holda yozdi.

- في الميادين هو يجلس،(1)
 مطلق – كالطفل – نبيلته بالحصي(2)
 [1:375] فيصبل بها من يصيب من السابلة! (3)

Maydonlarda o'tiradi u,
 So'ngra yosh boladek otib kamonidan toshli nayzani.
 O'tganlardan birini jarohatlaydi.

Bu she'rning rukni va ularning satrlardagi soni quyidagicha:

(1)	فاعلاتن	فاعلاتن			2 ta
(2)	فاعلاتن	فاعلتن	فاعلتن	فاعلتن	4 ta
(3)	فاعلتن	فاعلتن	فاعلتن	فاعلتن	5 ta

Demak, she'r rukni **فاعلن** bo'lib, u mutadorik bahrining ruknidir. Bu bahr aruzning oxirgi 16-bahri bo'lib, Xalil ibn Ahmad tomonidan shakllantirilgan 15 bahrga, keyinchalik taniqli aruzshunos, Basra maktabining vakillaridan biri Abulhasan Sa'id ibn Mu'ad al-Axfash (vaf. 830-y.) tomonidan qo'shilgan. Bahrning asliy ruknlari 8 ta

فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن فاعلن

Yangi she'riyat ruknlarida aruzda uchraydigan o'zgarishlar ham uchraydi. Jumladan, yuqoridagi satrlarda biz mutadorik bahri ruknlarida uchraydigan zihaf¹ va illatlarni ko'rib turibmiz.

Ya'ni, 2-, 3-satrlarda ruknning ikkinchi harfi sukunli – yengil sabab bo'lganda tushib qolgan - xabn

فاعلن ← فاعلن

1-satrdagi yengil sabab tushib qolgan va rukn oxiriga yengil sabab orttirilgan – xabn va tarfil

فاعلن ← فاعلن = فعلا ← فعلاتن

1- va 2-satrlarda ruknlar oxiriga yengil sabab orttirilgan – tarfil

فاعلن = فعلا ← فاعلاتن

Bu bahr o'zining lo'ndaligi va ohangdorligi jihatidan boshqa bahrlardan ajralib turadi. Shu sababli ko'pgina zamonaviy shoirlar unga murojaat qilganlar. Jumladan, Amal Dunqul ijodida ham shu bahr rukni asosida yozilgan she'rlarni ko'p uchratamiz.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, Amal Dunqul she'rlarining 35 % da rajaz, 32 % da mutadorik, 14 % da ramal, 6 % da mutaqorib va komil, 4 % da vofir bahrlarini qo'llagan.

Amal Dunqul poetik uslubiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar uning qofiya tanlashida va qofiyalash usulida ham ko'rinadi. Shoir qofiya tanlashda arab tilining ichki qonuniyatlariga, yangi arab she'riyati tuzilishiga asoslanadi. U o'z she'rlarida eng muhim so'zlarni satrning oxiriga qo'yib, unga qofiya topadi va shu uslub bilan muhim funktsiya tashuvchi qofiyalashgan so'zga o'quvchi e'tiborini safarbar etadi.

Shoir qofiyalar orqali she'rlarning ohangdorligi, ta'sir kuchini oshirishga harakat qildi.

U qofiya yaratishda bir necha usullardan foydalandi.

1) Qofiyadosh so'zlarning boshlovchi tovushlaridan boshqa tovushlarining aynan takrorlanishi:

صراع-نراع

جروح-شروح

Masalan,

آه لو املك سيفاً للنراع

[1:234]. **آه لو املك خمسين نراع**

Qaniydi jang uchun qilichim bo'lsa,

Qaniydi ellikta qo'lim bo'lsa.

كان قلبي الذي نسجته الجروح

[1:396]. **كان قلبي الذي لعنته الشروح**

Jarohatlar naqsh solgan qalbim bor edi,

Kim sharhlasa la'natlagan qalbim bor edi.

2) Nutq tovushlarining eshinishida bir-biriga yaqinligi asosida qofiya tuzish:

مسبحة-منبحة

¹ Zihaf – (لحاف lug'.m.: – aslidan uzoqlashish) – bir baytning barcha ruknlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin qasidaning boshqa baytlarida takrorlanishi shart bo'lmagan o'zgarish.

قش – عش

Masalan,

أيها الواقفون على حافة المنبجة

اشهروا الاسلحة

سقط الموت؛ امفرط القلب كالمسبجة

[3:23] والدم تساب فوق الوشاح

Ey, jangohdan chetda turganlar,

Yalang 'ochlang quollaringiz!

O'rtaga o'lim tushdi, qalb tarqaldi tasbeh donalaridek,

Kiyimlardan sizib chiqdi qon.

3) Tovushlar o'rnini almashtirish orqali:

ثعلب لعب

Masalan,

واروى لهن الحكايا

عن الملك النسر

والمملك الثعلب

ليهز الأراجيح... جاء ابي... فإن نمن

يلمس وجناتهن

[1:343] ويعطى لهن اللعب

Ularga hikoyalar so'zlayman

Shoh burgut haqida,

Shoh tulki haqida.

Uxlasalar, otam kelar... belanchakni tebratgani,

Yuzlarini silagani,

O'yinchoqlar bergani.

4) A. Dunqul, asosan, qofiyadosh so'zlar o'zagi oxirida takrorlangan yoki eshitilishida bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlardan, ya'ni raviydan samarali foydalangan:

قطنى – صوفى – فضى – سري

باهت – خافت – نامت – ماتت – صامت

كارثة – ثالثة

Amal Dunqul arab she'riyatida ko'p uchraydigan "sukunli qofiya" (القافية الساكنة) – 'al-qāfiyatu-s-sākina) dan ham mohirona foydalandi. Shoir she'riyatidagi qofiyalanishning bunday turi she'ning mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lib, muayyan ma'no kasb etadi.

Masalan,

دقت الساعة المتعبه

رفعت أمه الطيبه

عينها...

* * *

دقت الساعة المتعبه

نهضت، نسقت مكتبه

* * *

دقت الساعة المتعبه

جلست أمه؛ رتقت جوربه... [3:24-25]

*Horg'in soat bong uradi
Onaizor unga qaraydi...*

* * *

*Horg'in soat bong uradi,
Ona turib uning stolini yig'ishtiradi.*

* * *

*Horg'in soat bong uradi,
Onaizor asta o'tirib, uning paypog'ini tika boshlaydi.*

Bu parcha «Tosh qotgan non haqida qo'shiq» nomli she'rdan olingan bo'lib, unda ichki qo'shinlar bilan to'qnashgan talabalar namoyishi aks ettirilgan. E'tibor berilsa, parchadagi chuqur til orqa tovushlarining (ع،ق) harflarining qo'llanilishi, bu tovushlarning halqumdan qirilib chiqishi, misra so'ngida esa sukunli qofiya tufayli susayishi namoyishga ketgan o'g'lini kutayotgan, qo'rquv va xavotirdan goh "joni halqumga kelayotgan", goh yana tin olayotgan onaning ruhiy holatini anglatadi. O'quvchi ham beixtiyor shu holatga tushadi. Shu she'r so'ngida o'q tegib yerga qulagan namoyishchining halok bo'lishi oldidan qiynalib nafas olishi yana shunday tovushlar (ع،ق،خ) hamda sukunli qofiya orqali ifodalanadi.

Quyidagi sukunli qofiya esa o'lim to'shagida yotgan shoirning so'nggi pallada qiynalib nafas olishini eslatadi. Qahramon o'z ruhiy va jismoniy holatini stol ustidagi qog'ozga ismini yozib muxlisi yuborgan guldastaga ham o'tkazadi. Guldasta chiroyiga qaramasdan qahramon bilan behushlik va hushlik orasida hamnafas.

Masalan,

كل باقة...
تتنفس مثلي – بالكاد – ثانيه... ثانيه
وعلى صدرها حملت – راضيه...
اسم قاتلها في بطاقة! [1:371]

Har bir guldasta...

Yana... yana ... nafas olar bazo'r meningdek.

Qalbida rozi holda tutib turadi,

O'z qotili ismini qog'oz parchada.

Sukunli qofiya ham zamonaviy she'r yaratishdagi zaruriy uslublardan bo'lib, u she'rning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Amal Dunqul she'rlarida ichki qofiya turini ham keng qo'lladi. Masalan,

تفردت وحدك باليسر	ان اليمين لفي الخسر
اما اليسارو في العسر	إلا الذنن يماشون
إلا الذنن يعيشون	يحبشون بالصحف المشتراة
العيون فيعيشون	إلا الذنن يشون والا
الذنن يوشون ياقوت	[3:265] قمصاتهم برباط السكوت!

Sen berilding yolg'iz boylikka, axir bor haqiqat muhtojlikda-ku,

Axir boylik qiyinchilikda, lekin yonma-yon yurganlar,

Jaridalarga ko'zlarin tikib, bo'g'ilib hech narsani ko'rmayotganlar,

Ko'ylaklari yoqasini sukut iplari, zarlar bilan bezayotganlar,

Yotib olib bo'hton to'qiyotganlar uchun emas qiyinchiliklar.

"Ibodot" deb nomlangan bu she'rda Amal Dunqul she'riy uslubning ko'p xususiyatlarini ko'rish mumkin. Avvalo, uning ohangdorlik va qofiyalanishdagi jarangdorlik jihatidan mumtoz

qasidaga yaqin ekanligini ko'ramiz. Diqqat bilan e'tibor berilsa, shoir eshivilishi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan III shaxs, ko'plik, muzakkar jinsdagi fe'l shakllarini tanlaydi.

يماشون، يعيشون، يحشون، يعيشون، يشون، يوشون

Bu fe'llar she'rda ichki qofiyani, hammasi bir bo'lib esa, garchi she'r mazmuni diniy mavzudan yiroq bo'lsa-da, ibodatni eslatuvchi tantanali ohangni vujudga keltiradi. Shoirning ichki qofiyada qo'llaydigan bunday uslubi o'rta asr shoirlarining uslubiga o'xshab ketadi. Ma'lumki, XV–XVII asrlarda arab shoirlari she'rning ichki tuzilishiga, ohangdorligiga katta e'tibor berar edilar. She'riyatda turli so'z o'yinlari, ohangdor so'zlar silsilasi, turli mavhum iboralar va shunga o'xshashlarni qo'llash avj olib ketgan edi. Bu esa, albatta, qasidalarga shaklan go'zallik va nafislik baxsh etgan bo'lsa-da, ba'zan mazmunga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Lekin Amal Dunqul o'z she'rlarida shaklni mazmun maqsadlariga bo'ysundirishga, bu bilan o'quvchi she'rni shoir istaganidek qabul qilishga erishdi.

Amal Dunqul ijodida an'anaviy aruz vaznida yozilgan qasidalar ham uchraydi. Bu qasidalarda shoir turli bahrlarni qo'llaydi. Lekin shoirning aruz vazniga to'la rioya qilib yozgan qasidalari ko'p bo'lmay, ular asosan shoir ijodining dastlabki davrlarida yozilgan. Bu qasidalar vatan mavzusida bo'lib, ularda Misrning ajib tabiati, osori- atiqalari, shon-shuhrati kuylanadi. Yuqoridagi qasidalarda ham shoirning ona Vatanga, xalqiga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari samimiy ifoda etilgan.

Amal Dunqul she'riyati haqida so'z yuritir ekanmiz, uning yana bir jihati – badiiy xususiyatlarini tilga olib o'tish juda muhimdir. Amal Dunqul o'z she'rlarida takror, tashbih, jonlantirish kabi san'atlarni qo'llashda ham arab she'riyatining benihoya boy tajribasidan foydalandi. Shu bilan birga ko'p hollarda mustaqil ish tutib, o'ziga xos badiiy uslub yaratdi. Tasvir vositalari she'rlariga alohida joziba bag'ishlaydi.

Ritorik takror – Amal Dunqulning eng sevimli usullaridan biridir. Shoir o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrni o'quvchi qalbiga yetkazish, singdirish, uning diqqatini she'r mazmuniga yanada tortish maqsadida goh bir yoki bir necha so'zlarni, gohida esa butun boshli iboralarni qayta-qayta takrorlaydi. Bu bilan asarlari tilining ta'sirini kuchaytirishga va yanada ohangdorroq qilishga erishadi. Shoir she'rlarida muayyan so'zlar yoki iboralar qaytarilar ekan, ular goh she'rga yanada g'amginroq va ayanchliroq ma'no kasb etsa, gohida yanada shiddatliroq, g'azabliroq ma'noni ifoda etadi. Ba'zida takrorlanayotgan so'zlarning alohida satrlarga ko'chirilishi shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni yanada izchilroq ifoda etish imkonini beradi.

Amal Dunqulning she'riyatida qo'llanilgan tashbihlar (o'xshatish) boshqa arab shoirlarining ijodida uchramaydi. U an'anaviy tashbihlardan kam foydalanadi. Shoir she'rlarida xilma-xil: o'ziga xos kinoyali, satirik, chog'ishtirma tashbihlar uchraydi. Amal Dunqul bu tashbihlardan shunday mohirlik bilan foydalanadiki, ular she'rlarning tili va g'oyasini jozibali chiqishiga ko'mak beradi.

Shoir tilidagi tashbihlar turmush faktlarini nozik kuzatish orqasida ijod etiladi. Shuning uchun shoir o'xshagan predmet bilan o'xshatilgan predmet orasida o'quvchi sira kutmagan munosabatni topadi va uning xayolini faollashtiradi, uni ishontiradi. Uning tashbihlari boshqa tasvir vositalari kabi she'rlarga obrazlilik, tasviriylik, aniqlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Amal Dunqul tashbihlarni biror maqsadni ko'zlagan holda tanlaydi. Faqat ularga sinchiklab e'tibor bergan taqdirdagina shoir maqsadini payqash mumkin.

Masalan,

أن بنت أخيك "اليمامة"
زهرة تتسر بل – في سنوات الصبا –

بشباب الحداد [1:327].

*Akang qizi Yamama**Bolalik yillaridan motam kiyimini kiygan misli bir guldir.*

Yana bir misol:

فأرى الصمت ... كعصفور صغير
ينفر العينين والقلب، ويعوي [1:172].

*Sukunatni ko'ryapman... kichik qushchadek**Qalb va ko'zlarni cho'qilab, faryod qilmoqda.*

Ko'rib turganimizdek, Yamama – gulga, sukunat – kichik qushchaga o'xshatilmoqda. Bu yerda biz shoiring mahoratini guvohi bo'lamiz. Gul – nozik, nafis. Lekin u motam kiyimida bo'lsa, inson qalbiga naqadar og'ir botadi. Qushcha esa – chiroyli, ko'rkam. Lekin u jarohat, qalb va ko'zni cho'qisa naqadar dahshatli. Bulardan biri o'quvchiga urush oqibatlarini eslatasa, boshqasi yaqinlashib kelayotgan o'lim dahshatini yodga soladi. Albatta, Amal Dunqul bunday tashbihlarni she'rlarning mavzu va mazmuniga mos ravishda tanlagan.

Amal Dunqul she'rlarida bir narsa, hodisa yoki voqeani bir necha narsaga o'xshatganligini ko'rish mumkin. Masalan, uning she'rlarida o'lim o'rmalab kelayotgan tipratikanga, tuzoq to'qiyotgan o'rgimchakka, nishonga olayotgan yosh bolaga, qarmoq tashlayotgan ovchiga, chaqishga tayyorlanayotgan ilonga, hattoki o'z kuyi bilan rohat bag'ishlovchi nayga o'xshatiladi.

Masalan,

والعنكبوت فوق اعناق الرجال ينسج الردى
فقبلوا زوجاتكم ... اني تركت زوجتي بلا وداع [2:10].

*O'rgimchak kishilar bo'ynida falokat to'rin to'qir,**Xotinlaringiz quching... vidolashmay xotinimni tashlab keldim men.*

Yana bir misol:

اعطني القدرة حتى ابتمم...
عند ما ينغرس الخنجر في صدر المرح
وجذب الموت، كالقتفد، في ظل الجدار
حاملا مبخرة الرعب لأحدق الصغار [1:172].

*Qudrat bergil tabassum qilay...**Quvonch ko'kragiga hanjar botganda.**Bolalarning ko'zlariga qo'rquvni solib,**Devor soyasida asta o'rmalab,**Tipratikan singari o'lim kelganda.*

Amal Dunqul ijodida tabiat manzarasi lirik qahramon kechinmalari bilan bog'liq holda turlanar ekan, she'r mazmunini to'ldiradi. Shoir tabiat hodisalari, manzara va holatlarni inson o'y-xayollari, ichki kechinmalari bilan muqoyasa qiladi. Masalan, uning "Yomg'ir" she'rida yog'ayotgan yomg'ir lirik qahramonga o'tgan damlarni, birinchi muhabbatini, u bilan ajralish onlarini eslatadi. Biz bu she'rda tabiat manzarasi bilan lirik uyg'unlikda chizilgan, maydalab yog'ayotgan yomg'irga tikilib hayolga cho'mgan va sog'inchdan qalbi ezilgan oshiq yigitning ko'nglidan kechayotgan ruhiy holatga, umr bo'yi sevgilisini chorlab o'tuvchi, muhabbatiga sodiq lirik qahramonga duch kelamiz.

ينزل المطر
و يغسل الشجر
ويثقل الغصون الخضراء بالثمر

ينكشف النسيان

عن قصص الحنان
عن نكريات حب
... ضيعه الزمان

*Yomg 'ir yog 'adi,
Daraxtlarning barglarini yuvadi,
Mevalarga burkangan shohlar
Og 'irlashib pastga egiladi.*

* * *

*Yana esga tushadi,
Sog 'inch hijronlarda yurgan damlarim.
Yana esga tushadi,
Qachonlardir so 'ngan muhabbat.*

Shu tariqa shoir tabiat manzaralarini she'r mazmuniga mos ravishda chizadi. Bu esa she'riy asarni yanada ta'sirchanliroq chiqishiga yordam beradi. U o'zining ko'pgina she'rlarida inson tabiatining bir zarrasi ekanligini eslatib o'tadi, uni muhofaza qilishga, asrab-avaylashga chaqiradi.

Amal Dunqul she'riyatidagi obrazlilik o'ziga xos sifatlarga ega. U arab she'riyatida ko'p uchraydigan an'anaviy quyosh, oy, yulduz, qilich, ot kabi obrazlardan keng foydalanadi. Shuningdek, ramziy ma'no kasb etuvchi boshqa obrazlar ham kashf etadiki, ularni hayotiy bir voqea, tushuncha yoki predmetlar ifodasi uchun qo'llaydi.

Ko'pgina shoirlar oq rangni poklik, sofdillik, hayotiylik ramzi sifatida ko'rsalar, Amal Dunqulda bu o'lim ramzidir.

Masalan,

إن البياض الوحيد الذي نرتجيه
البياض الوحيد الذي نتوجه فيه:
بياض الكفن! [1:411]

*Biz kutayotgan yagona narsa – bu oqlik.
Biz birlashuvchi yagona narsa – bu oqlik,
Oppoq kafandir.*

Amal Dunqul ijodidagi dardli tuyg'ular ona xalqi dardi bilan uyg'unlashib ketgandir. U o'zining juda ko'p she'rlarida arab xalqining dardi, hasratini kuyladi.

Shoir ijodining o'ziga xosligi she'rlariga asos qilib olgan obrazlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. U o'zining ba'zi she'rlarida o'quvchi kutmagan obrazlarni tanlaydi va ular orqali o'z fikrini ixcham ifodalab berishga harakat qiladi.

Masalan, u o'zining "Qalamtarosh" (براءة – Barā'a) she'rida qalamtaroshni, "Rubob" (رباب – Rubāb) she'rida rubobni, "Krovat" (السريير – as-Sarir) she'rida esa krovatni obraz qilib oladi. Shoir bu obrazlarni jonlantiradi, ular bilan suhbat quradi, ularning borligini biror ma'noga bog'laydi, maishiy hayotda tutgan vazifasiga boshqacha tus beradi.

Masalan, quyidagi "Gullar" she'rida ifodalangan gul obrazi o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Shoir o'ziga keltirilgan gul dastalari bilan suhbatlashadi, dardlashadi. Uning bu obrazni yoritishdagi mahorati yana shunda ko'rinadiki, she'rga asos qilib olingan gul obrazi oddiy obraz emas – u shoiring xuddi o'zidir. Gullar aytayotgan dard-alam shoir dardidir.

تتحدث لي الزهرات الجميلة
أن أعينها اتسعت – دهشة –

لحظة القطف،
لحظة القصف،
لحظة إعدامها في الخميطة!
تتحدث لي... [1:370]

*Go 'zal gullar shivir-shivirlab,
Uzilgan lahzada,
Yulingan lahzada,
O'sgan chamanlarida toptalgan lahzada,
Dahshatdan ko'zlari ochilganini
So'zlab berardi menga...*

Amal Dunqul o'z she'riyatida tarix, xalq ijodiyoti bilan bir qatorda diniy merosdan ham keng foydalandi. Bir qancha she'rlarida Qur'oni karim, Injil rivoyatlari va oyatlariga tayandi, ulardan iqtiboslar keltirdi.

Quyidagi satrlarni tushunish uchun Qur'onning "Yusuf" surasini bilmoqlik darkor.

وأنا "يوسف" محبوب "زليخا"
عند ما جنت إلى قصر العزيز
لم اكن املك إلا ... قمرا
(قورا كان لقلبي مدفأة)
ولكم جاهدت كي اخفيه عن اعين الحراس،
عن كل العيون الصنفة
... كان في الليل يضىء! [1:177-178]

*Men Yusufman Zulayhoning mahbubi,
Hukmdor qasriga kelgan vaqtimda
Yolg'izgina oyga ega edim
(Shu oy qalbimni qizdirar edi).
Qanchalar intildim soqchilarning ko'zidan,
O'sha oyni yashirmoqlikka,
Zanglagan ko'zlardan yashirmoqlikka.
... U kechani yoritar edi!*

Ma'lumki, Yusuf alayhissalom og'a-inilari tomonidan quduqqa tashlangandan so'ng karvondagilar tomonidan chiqarib olinadi. Karvon Misrga yetib kelgandan so'ng Yusufni arzon bahoda Misr shahrining hokimiga sotib yuboradilar. Yusuf bir balodan qutulib, ikkinchi balo – tutqunlik va qullikka tutiladi.

She'rdan bir tomondan Yusuf alayhissalomning hukmdor qasriga mol-mulksiz kelishi nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan shoirning 60-yillarning boshida Qohiraga "yolg'iz oy" - pechenyedan boshqa hech narsasiz kelishi ifoda etiladi.

Quyida Qur'on oyatlariga tayangan holda bitilgan bir necha she'rlardan misollar keltiramiz. Ularning ma'nosini tushunish maqsadida she'r satrlari va Qur'on oyatlaridagi arabcha hamda o'zbekcha matnlarida bir-biriga taalluqli so'zlarning tagiga chizib qo'yamiz.

هذا الأرض التي ما وعد الله بها...
من خرجو من صلبها...
وانغرسوا في تربها..
وانطرحوا في حبها
مستشهدين!

... ..

[1:319] فَانْخُلُوهَا بِسَلَامٍ آمِينَ!!

*Bu Alloh va 'da qilgan yer,
Uning qa'ridan chiqqan kimsalar
Kiradilar yana tuproq ostiga,
Uning quchog'ida yotarlar,
Shahid bo'lgan cha.*

* * *

Unga (jannatlarga) tinchlik bilan sog'-omon kiringlar.

Qur'onning "Xijr" surasi 45-46 oyatlari:

أَنْخُلُوهَا بِسَلَامٍ آمِينَ [6:264]

Taqvodor – parhezkor zotlar esa albatta bog'lar va chashmalar ustidadirlar. (U zotlarga: «Jannatlarga) tinchlik bilan sog'-omon kiringlar», (deyilur) [9:181].

Yana bir misol:

والتين والزيتون

وطور سينين، وهذا البلد المحزون

لقد رأيت يومها: سفان الإفرنج

[1:258]. تغوص تحت الموج

Anjirga qasam, zaytungga qasam.

Sino tog'iga qasam, shu mahzun yurtga qasam.

Men o'sha kunni ko'rdim: farang kemalari

Suvga g'arq bo'lmoqda.

Qur'onning "Vat-tiyn" surasi 1-3-oyatlari

وَهَذَا الْبَلَدِ الْأَمِينِ [6:597]

1. Anjirga qasam, zaytungga qasam. 2. (Olloh taolo Muso payg'ambar bilan bevosita so'zlashgan) Sino tog'iga qasam. 3. Mana shu tinch-osoyishta shahar (Makkai mukarrama)ga qasamki [9:512].

Umuman aytganda, nasr va nazmni qur'oniy mavzu hamda iboralar bilan boyitish Sharq adabiyotiga xos an'ana bo'lib, ayniqsa, arab adabiyotida keng o'rin olgan. Ko'plab arab shoirlari va yozuvchilari qatori Amal Dunqul ham o'z she'rlarida qur'oniy iboralarni qo'llagan. Kuchli ta'sirga ega bo'lgan bu iboralar matnga jilo berib, ma'noni teranlashtirgan. O'quvchini chuqur mulohaza yuritishga undagan.

Amal Dunqulning poetik mahorati haqida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, u aruz bahrlaridan kechmagan holda an'anaviy qasida misralariga xos ruknlar muvozanatidan voz kechdi va fikr jo'shqinligi ta'sirida satrlarda xilma-xil sonli ruknlarni joylashishiga asosiy e'tiborni qaratdi. She'rlarida turli bahr ruknlarini qo'llab, asosan, tezlik va iztirobni yuzaga keltiruvchi rajaz, bir maromni yuzaga keltiruvchi mutadorik va ramal ruknlaridan foydalandi. Ba'zi o'rinlarda ko'p hijoli vofir va komil bahrlari ruknlarini ham iste'foda etdi. Buning natijasida harakat dinamikasi, so'z yoki iboralar jaranglashi kuchayib, she'r o'zgacha ohang kasb etdi.

Amal Dunqul she'rlarida qofiyalanish nizomi o'zgardi. Shoir "yangi she'riyat"ning ba'zi namoyandalari singari qofiyasiz she'r shaklini ishlatmadi. Yagona qofiya nizomidan voz kechgan shoir bu borada turli usullarni ishlatdi va bu sohada ham boy tajribaga ega bo'ldi. She'rlardagi qofiyalar joylashuvi asarning g'oyaviy mazmuni va mavzusi bilan uyg'unlashib ketdi.

Amal Dunqul barcha she'rlarini adabiy tilda yozdi va grammatik qoidalardan chetga chiqmadi. Ularda lahjadagi so'z va iboralar uchramaydi. Shoir arab she'riyatining ikki daryosini – asrlar davomida she'riyatning asosi bo'lib kelgan aruz vazni bilan yangi she'riy shaklni bir-biriga qo'shishga muvaffaq bo'ldi. U ikki she'r sistemasining imkoniyatidan mahorat bilan foydalanib, she'r texnikasi bobida katta yutuqlarga erishdi.

Shuni ta'kidlash joizki, Amal Dunqulni tanqid qilgan munaqqidlar ham uning til bobidagi mahorati, she'riy texnika va badiiyat sohasidagi yuksak san'atiga tan berishga majbur bo'lgan edilar.